

# **JONLI EFIRDA TAYYORLANMAGAN NUTQ UNSURLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Shaxzoda ZOKIROVA**

o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

## **Annotatsiya**

Ushbu maqola jonli efirda tayyorlanmagan nutq unsurlarining o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Televideniye diskursida oldindan ssenariylashtirilgan nutq va jonli efirdagi improvizatsion nutq bir-birini to‘ldiruvchi kommunikativ hodisalardir. Tadqiqot davomida tayyorlanmagan nutqning lingvopragmatik va ritorik xususiyatlari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tayyorlanmagan nutq unsurlari auditoriya bilan samimiylilikni kuchaytiradi, voqeani real va jonli qabul qilish imkonini beradi, shuningdek, jurnalistga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayonlarda nutqiy xatolar va noaniqliklar ham kuzatilishi mumkinligi ta’kidlangan.

**Tayanch so‘zlar:** jonli efir, tayyorlanmagan nutq, televideniye diskursi, improvizatsiya, ritorik ta’sir, jurnalistika, lingvopragmatika.

# **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НЕПОДГОТОВЛЕННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ РЕЧИ В ПРЯМОМ ЭФИРЕ**

**Шахзода ЗОКИРОВА**

преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

## **Аннотация**

В данной статье рассматривается роль и значение элементов неподготовленной речи в прямом эфире. В телевизионном дискурсе заранее подготовленная речь и импровизационные элементы эфира выступают как взаимодополняющие коммуникативные явления. В исследовании, анализируются лингвопрагматические и риторические особенности неподготовленной речи. Результаты показывают, что элементы неподготовленной речи усиливают эффект искренности, создают ощущение реальности происходящего и повышают доверие к журналисту. Однако подчеркивается, что в таких условиях возможны речевые ошибки и неточности.

**Ключевые слова:** прямой эфир, неподготовленная речь, телевизионный дискурс, импровизация, риторическое воздействие, журналистика, лингвопрагматика.

Bugungi kunda televideniye jamoatchilik ongiga eng tez va samarali ta’sir ko‘rsatadigan ommaviy axborot vositasi sifatida o‘z mavqeini saqlab kelmoqda. Televizion diskursning o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat ssenariylashtirilgan va

tayyorlangan nutqqa, balki jonli efir davomida yuzaga keladigan tayyorlanmagan nutq unsurlariga ham tayanadi. Ana shu ikki qatlam – oldindan tayyorlangan va bevosita efirda vujudga keladigan nutqiy shakllar birgalikda televideniyeining kommunikativ kuchini belgilaydi.

Tayyorlangan nutq asosan axborot dasturlari, rasmiy chiqishlar, maxsus reportajlar va hujjatli ko'rsatuvlarda ustun bo'lsa, tayyorlanmagan nutq ko'proq jonli efir, tok-shou, bevosita voqea joyidan olib boriladigan reportajlar, intervyular va muhokamalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday nutq o'zining improvizatsion xususiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki jurnalist voqeani shu zahoti tasvirlaydi, auditoriya esa uni real vaqt rejimida qabul qiladi.

Shu boisdan ham televideniye tilshunosligi va jurnalistika tadqiqotlarida tayyorlanmagan nutq unsurlarining lingvopragmatik va ritorik xususiyatlarini o'rganish alohida dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Masalan, ingliz olimi N. Fairclough ommaviy axborot vositalari nutqini tahlil qilar ekan, "OAV diskursi doimo ikki darajada ishlaydi: bir tomonda tayyorlangan matn, ikkinchi tomonda esa jonli muloqotga yaqin og'zaki elementlar" [10;112] deya ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, rus tadqiqotchisi T. Dobrosklonskaya televizion tilni "sintetik kommunikativ hodisa" [3;112] sifatida baholab, unda nutqiy og'zaki unsurlar va vizual kodlarning uyg'unlashuvi natijasida ta'sirchanlik kuchayishini qayd etadi. O'zbek tilshunosi Sh. Qodirov esa jonli efirdagi improvizatsion nutqni "auditoriya bilan samimiylik ko'prigi" [8;88] deb atab, uning televideniyeidagi ijtimoiy vazifasini alohida e'tirof etadi.

Keltirilgan ilmiy qarashlardan ko'rinadiki, tayyorlanmagan nutq televideniyeida shunchaki "xato" yoki "tasodif" emas, balki butun diskursning ajralmas qismidir. U jurnalist nutqiga tabiiylik baxsh etadi, tomoshabinni bevosita muloqotga jalb qiladi va voqea ishtirokchisiga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola jonli efirda tayyorlanmagan nutq unsurlarining lingvopragmatik va ritorik xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Televideniyeidagi tayyorlanmagan nutq unsurlarini tahlil qilishda avvalo ularning kommunikativ mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Chunki improvizatsiya

o‘z-o‘zidan vujudga keladigan jarayon emas, balki ma’lum ritorik mexanizmlar orqali shakllanadi. Ingliz olimi D. Tannen nutqiy muloqotda oldindan tayyorlangan va tayyorlanmagan elementlar o‘zaro uyg‘unlashishini tahlil qilar ekan, shunday yozadi: “Har qanday jonli efirdagi improvizatsiya aslida ko‘p yillik tajriba va madaniy kodlar bilan mustahkamlangan jarayondir. Tomoshabin uni spontanik jarayon deb qabul qilishi mumkin, biroq jurnalistning ohang, pauza, intonatsiya orqali berayotgan ishoralari uning nutqiy tayyorgarligi va kommunikativ nazoratidan dalolat beradi. Shu boisdan ham jonli efirdagi tayyorlanmagan nutq tabiiylik va professionallikni birlashtiruvchi hodisadir” [11;64].

Rus tadqiqotchisi E. Rikel televideniye tilida improvizatsiyaning ijtimoiy vazifasiga to‘xtalib, shunday fikr bildiradi: “Televizion chiqishlarda oldindan yozilgan matn hamisha mavjud, biroq tomoshabin uchun jonli muloqot hissini yaratish maqsadida boshlovchi o‘z nutqiga tayyorlanmagan elementlarni kiritadi. Ayniqsa, bevosita efirda yuzaga keladigan pauzalar, so‘z izlash jarayonlari, hissiy intonatsiyalar nutqning samimiy va tabiiy qabul qilinishini ta’minlaydi. Bu jarayon aslida televideniyaning ijtimoiy legitimatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi, chunki auditoriya aynan shunday “tirik nutq” orqali o‘zini jarayonning bir qismi sifatida his qiladi” [7;119].

O‘zbek olimi O. Yo‘ldoshev esa milliy televideniyaedagi jonli efirning xususiyatlarini o‘rganar ekan, quyidagicha ta’kidlaydi: “O‘zbek telekanallarida jonli efirning o‘ziga xosligi shundaki, unda improvizatsion nutq orqali milliy an’analar, xalqona iboralar va madaniy kodlar ham yangraydi. Masalan, tok-shoular va intervyu dasturlarida jurnalistning tayyorlanmagan so‘zlari ko‘pincha xalqona latifalar, maqollar, iboralar bilan boyitiladi. Shu orqali televideniye nafaqat axborot uzatadi, balki milliy mentalitetni ham aks ettiradi. Demak, tayyorlanmagan nutq o‘zbek televideniyesida lingvokulturologik vazifani ham bajaradi” [5;95]. Masalan, “*Bunday tomoshalarini xalqimiz ‘bir ko‘rib ko‘ngil yozadi’ deydi*”, yoki “*Mana, haqiqiy milliy kayfiyatni ko‘rayapsizlar* ”. Bu orqali improvizatsion nutq nafaqat axborot beradi, balki madaniy kodlarni ham uzatadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlardan ko‘rinadiki, tayyorlanmagan nutqning ilmiy o‘rganilishi uni oddiy nutqiy xatolik emas, balki televideniyaning samarali kommunikativ strategiyasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, improvizatsiya jurnalistning auditoriya bilan bevosita aloqasini ta’minlaydigan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, CNN yoki BBC muxbirlari tez-tez *“You can see behind me...”* yoki *“Ko‘rib turganingizdek...”* kabi so‘zlar bilan murojaat qilishadi. O‘zbek telekanallarida ham shunga o‘xshash iboralar qo‘llanadi: *“Aziz tomoshabinlar, hozir ko‘rib turganingizdek, sahnada yosh raqqosalar chiqish qilmoqda”* yoki *“Mana shu maydonda bayram kayfiyati avjida”*. Bu kabi iboralar vizual tasvir bilan uyg‘unlashib, voqelikni kuchliroq his qilish imkonini beradi. Jonli efirda tayyorlanmagan nutq unsurlarining eng muhim ko‘rinishi bu – jurnalistning voqeaga bevosita guvoh sifatida o‘z taassurotlarini berishi, ya’ni *ko‘rgazmalilikni kuchaytiruvchi ishoraviy iboralar*. Masalan, BBC muxbiri 2020-yilda Livan portlashidan so‘ng jonli efirda quyidagicha gapirgan edi: *“You can see behind me the thick smoke rising from the port area... we don’t yet know the scale of the destruction...”*. Ushbu nutq shaklan to‘liq sintaktik jihatdan mukammal bo‘lmasa-da, undagi *“we don’t yet know”* kabi qismlar auditoriya bilan samimiy muloqot hosil qiladi. Shu orqali muxbirning o‘zi ham voqeadan bevosita xabardor emasligi sezilib, tomoshabinda *“birgalikda bilish jarayoni”* effekti paydo bo‘ladi.

CNN yangiliklarida esa improvizatsiya ko‘proq vizual tasvir bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Florida shtatidagi to‘fon haqida jonli efirda muxbir: *“It is hard to even stand here right now, the winds are pushing me back...”* deya xabar berganida, u grammatik jihatdan tayyorlangan matndan chekinadi, lekin auditoriyada voqea bilan *“bevosita ishtirok”* hissini uyg‘otadi. Rus olimi N. Bolotnova ta’kidlaganidek: *“Improvizatsiya orqali nutqiy muloqotda verbal va vizual kodlar uyg‘unlashadi, bu esa tomoshabinni hodisaning “ichida” turgandek his qilishiga olib keladi”* [2;141].

O‘zbek televideniyesida ham tayyorlanmagan nutq misollari ko‘p uchraydi. Masalan, *“O‘zbekiston 24”* telekanali jonli efirda Andijonda bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalni yoritayotgan muxbir *“Aziz tomoshabinlar, hozir guvohi*

*bo'layotganingizdek, maydonda mehmonlarimiz xalq raqslarini ijro etishmoqda...*” deya xabar beradi. Bu yerda “*guvohi bo'layotganingizdek*” ifodasi jurnalistning improvizatsion unsuri bo'lib, tomoshabin bilan jonli muloqotni kuchaytiradi.

Improvizatsiya jonli efirning eng ta'sirchan jihatlaridan biri hisoblanadi. U odatda uchta asosiy ritorik vazifani bajaradi va har biri auditoriyaning voqeaga munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

*Axborotning dolzarbligini kuchaytirish.* Improvizatsiya voqeaga bevosita guvohlik berish orqali yangilikka “jonlilik” baxsh etadi. Masalan, muxbirning “*Hozir aynan shu yerdaman*”, “*Qarang, binoning ichi hali ham tutun bilan to'lgan*” kabi og'zaki chiqishlari voqeaning real vaqtida kechayotganini anglatadi va auditoriyada kuchli hozirgi zamon ta'sirini uyg'otadi. M. Ekström fikricha, televideniye yangiliklarining eng muhim xususiyatlaridan biri “voqealarni shu zahotiyoq yuz berayotgandek taqdim etishga urinishdir” [9;266]. Bu esa dolzarblik (immediacy) prinsipi orqali ma'lumotni ishonchli va ta'sirchan qiladi.

*Auditoriya bilan hissiy aloqa o'rnatish.* Jonli efirda tayyorlanmagan nutq orqali jurnalist ko'pincha tomoshabinni jarayonga “tortib kirish”ga harakat qiladi. Jonli efirda boshlovchi yoki muxbir ko'pincha voqea ta'sirida hissiyotlarini yashira olmaydi. Masalan, sport sharhlovchisi muhim gol urilganida “*Vooy, qanday goool! Bu kutilmagan burilish!*” deya hayajonini yashirmaydi. Yoki falokat joyidan xabar berayotgan muxbirning ovozi titrab: “*Bu yerda odamlarning qanchalik iztirob chekayotganini so'z bilan ifodalash qiyin*” deyishi tomoshabinda ham kuchli emotsional rezonans uyg'otadi. N. Nazarboyev ta'kidlaganidek, “televideniye'dagi har qanday ijodiy matn tomoshabin bilan muloqotga kirishishga intiladi va undagi improvizatsiya aloqaning samimiyligini ta'minlaydi” [6;74]. Demak, bunday nutq uslubi orqali jurnalist va auditoriya o'rtasida interaktiv muloqot paydo bo'ladi.

*Jurnalist obro'sini oshirish (Etos).* Improvizatsiya orqali jurnalist “voqea ichida” ekanligini namoyon qiladi. Bu holat tomoshabin ko'zida uning obro'sini oshiradi, chunki auditoriya jurnalistni voqeaga to'g'ridan-to'g'ri aloqador, ishonchli manba sifatida qabul qiladi. Masalan, zilzila, to'fon yoki yirik xalqaro

anjuman joyidan berilayotgan reportajda muxbir *“Hozir qarasangiz, odamlar shoshilinch ravishda maydonni tark etishyapti”* yoki *“Mana shu yerda, orqamda, yordam mashinalari ketma-ket kirib kelmoqda”* kabi ifodalar ishlatadi. Bunday gaplar nafaqat xabarni yetkazadi, balki tomoshabinni hodisa ichiga olib kiradi. Aristotelning ritorika nazariyasida etos nutqning ishonchga asoslangan salohiyati sifatida ta’riflangan bo’lib, *“so’zlovchining shaxsiy obro’si uning so’ziga ta’sirchanlik baxsh etadi”* [1;43]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jonli efirda improvizatsiya etosning eng kuchli namoyoni hisoblanadi. Shu bois tayyorlanmagan nutq televideniya faqat sintaktik erkinlik emas, balki auditoriyani jalb qilishning kuchli strategiyasi sifatida namoyon bo’ladi. O’zbek olimi Sh. Jo’rayev bu haqda shunday yozadi: *“Jonli efirda tayyorlanmagan nutq unsurlari, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ko’rsatuvlarda milliy an’analar, xalqona iboralar, hazil-mutoyiba orqali muloqotning samimiyligini ta’minlaydi”* [4;102].

Jonli efir nutqi televideniyaning eng muhim va ta’sirchan jihatlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, improvizatsion elementlar – bevosita guvohlik berish, hissiy urg’ular, ko’rgazmali ishoralar, pauzalar va xalqona iboralar – televideniya nutqining tabiiyligini oshiradi va tomoshabinni hodisaning bevosita ishtirokchisiga aylantiradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jonli efirdagi nutq elementlariga oddiy og’zaki ifoda emas, balki murakkab kommunikativ strategiya sifatida qaralishi zarur. Ular orqali jurnalistlar nafaqat voqeani yoritadilar, balki jamiyat ongiga ta’sir ko’rsatadilar, milliy va madaniy qadriyatlarni targ’ib qiladilar, ijtimoiy birlikni mustahkamlaydilar. Shu bois jonli efirdagi tayyorlanmagan nutq unsurlarini lingvopragmatik va ritorik nuqtai nazardan chuqur o’rganish nafaqat tilshunoslik va jurnalistika, balki ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar uchun ham dolzarbdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Аристотель. Риторика. Москва: Наука, 2000. – 43 с.

2. Болотнова Н. С. Медiateкст в системе современной коммуникации. Москва: ИНФРА-М, 2018. – 141 с.
3. Добросклонская Т. Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – Москва: Флинта, 2018. – 112 с.
4. Jo‘rayev Sh. Improvizatsiyaning milliy televideniyedagi ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
5. Йўлдошев О. Миллий телевидениеда жонли эфирнинг хусусиятлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020.
6. Назарбоев Н. Телевидение ва ижодий мулоқот. – Алматы: Қазак университети, 2019.
7. Рикель Е. А. телевизионный дискурс: структура и функции. – Санкт-Петербург, 2019.
8. Қодиров Ш. Телевидениеда импровизация ва аудитория билан мулоқот. – Тошкент: Фан ва технология, 2021.
9. Ekström M. Young people and news media: a critical approach. Journalism, 2002, Vol. 3, No. 3. – P. 266.
10. Fairclough N. Analysing discourse: textual analysis for social research. London: Routledge, 2003. – P. 57.
11. Tannen D. Talking voices: repetition, dialogue, and imagery in conversational discourse. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 64.